

**UZKIMYOSANOAT AJ” INOVATSION-INVESTITSION MODDIY-TEXNIK  
BAZASINI TAKROR IShLAB ChIQARISH MEXANIZMI**

**Ortiqov Ulug‘bek Akrombek o‘g‘li**

*Toshkent moliya instituti O‘qtuvchisi*

**Ikromov Farrux Xusanovich**

*Toshkent moliya instituti Talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada O‘zbekiston Respublikasi kimyo sanoati, innovatsion-investitsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish, “O‘zkimyosanoat” AJ korxonalarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish, investitsion salohiyatni oshirish iqtisodiyot tarmoqlarining innovatsion yangilanishidagi ahamiyati, investitsion faoliyatni rag‘batlantirish, mamlakatimizning eksport xajmi ortishi hamda kimyoviy mahsulotlarga talabning ortib borayotgani haqida yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** sanoat korxonalari, innovatsion-investitsion loyixalar, moddiy-texnik baza, xususiy manbalar, innovatsion-investitsion loyihalar, kimyoviy mahsulot, eksport potensiali, raqamli iqtisodiyot.

### **Kirish**

Kimyo sanoat sohasidagi o‘rta va uzoq muddatli istiqbollarda iqtisodiy o‘sishning asosiy omili sifatida “O‘zkimyosanoat” AJning maqsadi innovatsion-investitsion loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish hisobiga ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdir.

Jahondagi rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiyotda innovatsion faoliyatning keng joriy etilishi hamda investitsion faollik xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshlikni oshirib, barqaror rivojlanish uchun xizmat qiladi. Ayniqsa, kimyo sanoati korxonalarida innovatsion-investitsion faoliyatning keng yo‘lga qo‘yilishi tarmoq iqtisodiy samaradorligining oshishiga ahamiyatli ta’sir ko‘rsatadi. Dunyoda kimyo sanoatining yalpi ishlab chiqarish hajmi qariyb 2 trillion dollarni tashkil etadi.[1] . Xususan jaxonda kimyo sanoati yeng rivojlangan Germaniya, Italiya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Belgiya jahon kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish va eksportining 23-24%, AQSh – 20%, Yaponiya – 15%, Rossiyada – 3-4 % ni tashkil qiladi. Bu esa innovatsion-investitsion faoliyatni rivojlantirish hamda rag‘batlantirish mexanizmlari samaradorligini bildiradi.

Hozirgi vaqtda kimyo sanoati respublikada eng ko‘p energiya talab qiladigan va moddiy talab qiladigan tarmoqlardan biri bo‘lib qolmoqda. Xarajatlarning eng katta ulushi taxminan 42% xom ashyo va materiallar, so‘ngra 30% yoqilg‘i va energiya bilan ta’minlanadi,

xarajatlarning eng kichik ulushi taxminan 3% mehnat va xizmatlar uchun to'lov va 4% uskunalarni aromatizatsiya qilishrga yo'naltiriladi. Juda yuqori energiya iste'moli korxonaning beqaror moliyaviy-iqtisodiy holatiga olib keladi. Shu munosabat bilan "O'zkimyosanoat" AJdagi innovatsion-investitsion siyosatni takomillashtirish, investitsion faoliyatni rag'batlantirish va investitsion salohiyatni oshirish faoliyatni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratish lozim.

"O'zkimyosanoat" AJda investitsiyalarning o'sishini ushlab turadigan asosiy muammo, ishlab chiqarish samaradorligining pastligidir, kimyo sanoatidagi qayta ishslash korxonalarining moliyaviy beqarorligi, kimyoviy mahsulotlarga narxlarning o'zgarishi va narxlarning dispariteti (nomutanosibligi)ning oshishi buning asosiy sababidir. Bu moddiy-texnika bazasini va umuman ishlab chiqarishni yangilash hamda modernizatsiya qilish uchun yetarli moliyaviy resurslarga ega bo'lмаган "O'zkimyosanoat" AJga qarashli korxonalarining moliyaviy muammolarini sezilarli darajada oshirib yubormoqda.


So'nggi yillarda kimyo sanoati tarmog'idagi takror ishlab chiqarish jarayonida davlat ishtirokining sezilarli darajada pasayishi, kapital bozorida uzoq muddatli resurslarning yetishmasligi va aksariyat tovar ishlab chiqaruvchilar uchun qarz mablag'larining yetishmasligi ularning yuqori "narxi" tufayli innovatsiyalarga bo'lgan investitsiyalarni asosiy manba bo'lishiga olib kelmoqda. Moliyalashtirish asosan hususiy mablag'lar (amortizatsiya ajratmalar, foyda) hisobiga amalga oshirilmoqda. Shunga ko'ra, "O'zkimyosanoat" AJ korxonalarining moddiy-texnik bazasini ko'paytirish mexanizmi samarali faoliyat ko'rsatishiga imkon beradigan sanoat tarmog'ida amalga oshirilayotgan innovatsion-investitsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi (1-rasm).

Shu munosabat bilan "O'zkimyosanoat" AJdagi innovatsion-investitsion siyosatni takomillashtirish, investitsion faoliyatni rag'batlantirish va investitsion salohiyatni oshirish faoliyatni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratish lozim.


Mamlakatimizdagi kimyo sanoati korxonalarida mahsulotlar ishlab chiqarish va ularning eksport salohiyatini rivojlantirish masalasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 fevraldag'i "Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog'lomlashtirish, yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4992-sonli qarori muhim ahamiyatga egadir.

Tarmoqda yaratilgan poydevor kelgusi yillarda kimyo sanoatidagi korxonalarining eksport va innovatsion-investitsion salohiyatining barqaror o'sish dinamikasini ta'minlashga zamin yaratadi. Shuningdek, kimyo sanoatining barcha yo'nalishlarini uzoq muddatli ilg'or innovatsion-investiiion faoliyatini rivojlantirish uchun mustahkam bazani yaratish, eng ilg'or xorij tajribalarini inobatga olgan holda, tarmoqdagi mavjud quvvatlarni takomillashtirish jarayonlarini tezlashtirishni talab qilib qoladi. Ushbu

jarayonlarni amalga oshirish uchun investitsion faollikni yanada rivojlantirish kerak bo'ldi.



1- rasm. “O'zkimyosanoat” AJning innovatsion-investitsion faoliyatdagi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni moddiy-texnik bazani takror ishlab chiqarish hisobiga rivojlantirish[10]



2-rasm. 2016-2020 yillarda kimyo sanoatidagi asosiy investitsiya ko'rsatkichlari

O'zbekistondagi kimyo sanoati korxonalariga 2016-2020 yillarda 2,1 mlrd. dollarga teng qiymatlari loyiҳalar amalga oshirilgan. Buning natijasida 3155 ta yangi ish o'rni yaratish imkoniyati yaratildi. Loyerhalar ishga tushirilishi natijasida jami 1,35 trln. so'm byudjetga yo'naltirilgan.

Bu yillar davomida 5,9 trln. soʻmlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. 2016-2020 yillar oraligʻida jami 16 loyiha yakunlandi va ishga tushirildi. Loyihalarni amalga oshirish uchun jalb qilingan mablagʼlar 100 % oʻzlashtirildi. Ularning tarkibida 93,5 mln. dollar toʻgʻridan-toʻgʻri investitsiyalar oʻzlashtirilgan hamda 30 ta turdagʻi yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish yoʻlga qoʻyildi.

“Oʻzkimyosanoat” AJdagi investitsiya manbalariga xususiy, qarzga olingan, jalb qilingan va byudjet mablagʼlari kiradi. Xususiy manbalar - bu foyda, amortizatsiya ajratmalari va asosiy vositalarni sotishdan olingan tushum kiradi. Qarzga olingan manbalar asosan bank va byudjet kreditlari, shuningdek obligatsiya kreditlaridir. Jalb qilingan mablagʼlar - bu aksiyalarni sotish, ijaraga olingan paylar va jismoniy hamda yuridik shaxslarning ixtiyoriy badallaridan tushgan mablagʼlar kiradi.

“Oʻzkimyosanoat” AJdagi innovatsion-investitsiyalarning hozirgi tarkibi, bu umumiyl investitsiya tarkibida kimyo sanoat korxonalarining xususiy investitsiya manbalarining yuqori ulushiga toʻgʻri kelishini koʻrsatadi. Moliyaviy ahvolning qiyinligi, debitorlik qarzlarning oʼsishi va aksariyat kimyo sanoat korxonalaridagi qarz yukining yuqoriligi tufayli ushbu manbalardan foydalanish hisobiga investitsiyalarni moliyalashtirish uchun jiddiy cheklovlar yaratmoqda.

Shu bois kimyo “Oʻzkimyosanoat” AJ maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi sanoati korxonalari xususiy investitsiya manbalarida jiddiy tanqislikni boshdan kechirib kelmoqda.

Shu munosabat bilan kimyo sanoati korxonalarining asosiy vazifasi xususiy mablagʼlar xisobiga investitsion loyihalarini moliyalashtirish uchun zarur resurslarni takomillashtirishdir. Bu esa kimyo sanoatiing moliyaviy va ishlab chiqarish faoliyatini doirasida iqtisodiyotga salbiy taʼsirni qisqartiradi, kimyo sanoati mahsulotlarini investorlar uchun jozibador qiladi va ularga davlatida ishtirokida investorlarni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha grant dasturlarda qatnashishlariga imkon beradi.

Kimyo sanoati korxonalarining xususiy investitsiya loyihalarini birgalikda moliyalashtirish, bu orqali kapital qoʻyilmalar oqimini koʻpaytirish, iqtisodiyotning kimyo sanoati tarmogʻida amalga oshirilayotgan innovatsion- investitsion loyihalaridagi risklarni kamaytirish imkoniyatiga ega boʼlish mumkin. Foyda va amortizatsiya “Oʻzkimyosanoat” AJning investitsion faoliyatida toʻplangan moliyaviy va iqtisodiy muammolarni hal qilish, innovatsion loyihalarini moliyalashtirish xususiy manbalar hisobidan amalga oshirish mumkin. Shuningdek amortizatsiya fondidagi mablagʼlarni depozitga qoʻyish va daromad olish hisobiga hamda ustav kapitalini oshirish orqali moliyalashtirish manbalari sonini kengaytirish mumkin.

Hozirgi paytda «Oʻzkimyosanoat» AJ korxonalarga investorlarni jalb qilish boʻyicha faol investitsion siyosat yuritmoqda. Maqsadi energiya tejamkorligi sezilarli boʻlgan holda eng yuqori unumdorlikni taʼminlash hisoblangan mahalliy va xorijiy injiniring kompaniyalarining eng yangi ishlanmalarini qoʻllagan holda ammiak ishlab chiqarish boʻyicha yirik tonnajli agregatlarni modernizatsiyalash va qayta taʼmirlash

bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'tgan yildan boshlab mineral o'g'itga talabni qondirish uchun 3,1 mldr dollarlik 17 ta investitsiya loyihasi amalgalashirila boshlandi.[11]. Korxonada 2020 yil 9 oyda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari qiymati 5 684,9 mldr.so'mni tashkil yetgan bulib usish su'rati 105,1% ni tashkil etgan. 2020 yil yakunida ishlab chiqariladigan sanoat mahsulotlari qiymati 7 704,6 mldr.so'm bulib, usish su'rati 118% (2019 yilga nisbatan). 2021 yilda ishlab chiqariladigan sanoat mahsulotlari qiymati 9 291,1 mldr.so'mni usish su'rati esa 121,0% ni (2018 yilga nisbatan) tashkil etdi.[12]

#### Xulosa va takliflar

Demak xulosa qiladigan bo'lsak O'zkimyosanoat AJ tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar diversifikatsiyasi orqali Respublikamizning kimyo tarmog'ini innovatsion-investitsion rivojlantirish uchun xususiy mablag'lar xisobiga investitsion loyihamalarini moliyalashtirish uchun zarur resurslarni takomillashtirishdir. Bu esa kimyo sanoatiing moliyaviy va ishlab chiqarish faoliyatini doirasida iqtisodiyotga salbiy ta'sirni qisqartiradi, kimyo sanoati mahsulotlarini investorlar uchun jozibador qiladi va ularga davlatida ishtirokida investorlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha grant dasturlarda qatnashishlariga imkon beradi.

Kimyo sanoati korxonalarining xususiy investitsiya loyihamalarini birgalikda moliyalashtirish, bu orqali kapital qo'yilmalar oqimini ko'paytirish, iqtisodiyotning kimyo sanoati tarmog'ida amalga oshirilayotgan innovatsion-investitsion loyihamalaridagi risklarni kamaytirish imkoniyatiga ega bo'lish mumkin.

Foyda va amortizatsiya "O'zkimyosanoat" AJning investitsion faoliyatida to'plangan moliyaviy va iqtisodiy muammolarni hal qilish, innovatsion loyihamalarini moliyalashtirish xususiy manbalar hisobidan amalga oshirish mumkin.

Shuningdek amortizatsiya fondidagi mablag'larni depozitga qo'yish va daromad olish hisobiga hamda ustav kapitalini oshirish orqali moliyalashtirish manbalari sonini kengaytirish mumkin.

"O'zkimyosanoat" AJ amortizatsiya ajratmalarining jamg'arish (takror ishlab chiqarish) usulini qo'llash va xarajatlar taqsimlash usulidan voz kechish lozim.

Jamg'arish usuli "O'zkimyosanoat" AJning amortizatsiya fondida kimyoviy sanoat mahsulotlarini sotishdan tushgan tushumdan naqd pul shaklida amortizatsiya ajratmalarini to'plashga zamin yaratadi, so'ngra amortizatsiya fondida to'plangan amortizatsiya ajratmalarini asosiy vositalarni ko'paytirish uchun xususiy mablag'larni investitsiyalash sifatida foydalilanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Химическая промышленность — Википедия (wikipedia.org)
2. Твісс Б. Управление научно-техническими инноваціями. М.: Экономика, 1989. – 388 С.

3. Cooke Ian, Mayers P. Introduction to Innovation and Technology Transfer. Boston: Artech House, Inc., 1996. Part 1. – P.124
4. Медынский В.Д., Ильдеменов С.В. РЕвропа Иттифоқинжиниринг инноватсиянного предпринимательства. М.: Юнити, 1999. – 414 С.
5. M.S.Saidkamolov O'zbekiston Respublikasi temir yo'l tarmog'ida investitsion faoliyat samaradorligini oshirish. ". Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Avtoreferati. Т.: 2021 у.
6. Boymirzaev B.J. "O'zbekko'mir" aksionerlik jamiyatini innovatsion faoliyat asosida samarali rivojlantirish/Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Avtoreferati. -Т.: 2020. 23bet
7. Nabieva S.A. Sanoat korxonalarida innovatsion salohiyatni rag'batlantirish mexanizmlari takomillashtirish. I.f.f.d ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtoreferat – Т.: 2021. B.15.
8. Jahongirov I.J. Milliy iqtisodiyotni innovatsion-investitsion rivojlantirish asosida barqaror iqtisodiy o'sishni taminlash. I.f.n ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Т.: 2019. 36-b.
9. Виленский П.Л., Лившиц В.Н., Смоляк С.А. Оценка эффективности инвестиционных проектов. Теория и практика: Учебное пособие - 5 изд., перераб. и доп. - М.: Поли прнт Сервис, 2015 - 1300 с.
10. Дехканова Н.Ш. Modern Approaches and Strategies for the Implementation of Innovative Processes in Industrial Enterprises on the Example of Uzbekistan // International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD). Special Issue on Modern Trends in Scientific Research and Development, Case of Asia Available. – Nov.-Dec. 2020.–P.59–62.
11. URL:[www.http://uzkimyosanoat.uz](http://uzkimyosanoat.uz)
12. Дехканова Н. Ш. Организация инновационных кластеров в управлении инновационно-инвестиционной деятельностью промышленных предприятий // Экономика и инновационные технологии. Научный электронный журнал. 2020.- № 4. - С. 179–184.